

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamalidinova Asalxon Saliyevna	
2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI	151
Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich	



MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI	155
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ	163
Хайдарова Ёркиной Аскар кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	170
Mamatova Nodira Mirzavaliyevna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	178
Срождидинова Зарина Хайриiddиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна	
MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	186
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL	190
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI VA "QAMRAB OLINMAGAN O'RTA QATLAM" MUAMMOSI	196
Bafoev Farrux Jo'raqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA EKOLOGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Shanazarova Gulyoraxon Baxtiyarovna	
O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMIDA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONINING INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI	208
Xoliqova Xurshidaxon Xayotjon qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA STARTAP EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	214
Usmanov Gafurjon Shavkatovich	
QURILISHDA ISHLAB CHIQRISH VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINING RIVOJLANISHI	220
Buriyev Xakim Toshimovich, Usmanov Ilxom Achilovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISHNING STRATEGIYALARI	225
Xolov Sherali Axrorboyevich	
2010-2024-YILLARDA O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIKNI INVESTITSIYALASHNING EKONOMETRIK TAHLILI	229
Ashurov Shuhratbek Quddat o'g'li	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI	233
Sherbekova Kamola Norbekovna	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGI DARAJASI VA UNI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	243
Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich	
MARKAZIY BANK KURS SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	249
Saydullayev Nodirbek Narzullaevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH SALOHİYATI VA MUAMMOLARI	258
Raupov Shuxrat Soyibovich	
ЭКОТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	264
Абидова Дилфуза Игамбердиевна, Рахматуллаева Зулайхо Хасан кизи	
DIGITAL ECONOMY AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: BUSINESS CHANGE IN THE REGIONS	270
Abdullayev Muzaffar Abdujabbarovich	



QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASHDA IOT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	273
Mirzaev Dilshod Artikovich	
ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА	279
Касимова Наргиза Сабитджановна	
YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY ASOSLARI VA UNGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	284
Ismoyilova Mahliyo Oybek qizi	
BOSHQARUVDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR (OLIIY TA'LIM MISOLIDA).....	289
Karievva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISHNING AMALDAGI HOLATI VA ASOSIY TENDENSIYALARI.....	295
Qurbonov Odilbek Ro'zmatovich	
O'ZBEKISTONDA SPORT FEDERATSIYALARI VA ASSOTSIATSIYALARINI SAMARALI BOSHQARISH TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'LLARI	302
Umed Farmonkulovich Radjabov	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN IQTISODIY MEKANIZMNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	307
Mullayeva Mexrangiz Axtam qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	313
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Muradova Nazira Raximjanovna	
RAQAMLI MARKETING VA ONLAYN PLATFORMALAR ORQALI EKOTURISTIK MAJMUALARNI OMMALASHTIRISH TRENDI	318
Xolmatova Parvina Asliddin qizi	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MA'MURCHILIGI STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI VA ULARNI YECHIMLAR	323
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
РАЗВИТИЕ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА КАК ФАКТОР РЕГИОНАЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.....	327
Бахтиёрров Худайберган Хамдам угли	
MAHALLIY BUDJETLARDA TRANSFERTLARGA QARAMLIK DARAJASINI BAHOLASH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	335
Xudoyqulov Hamidjon Abdullayevich	
QORAQALPOG'ISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI BOSHQARISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	342
Tajibaev Berdax Asqarbay uli	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	347
Ashurova Maftuna Ortiq qizi	
STRATEGIC DIRECTIONS FOR INCREASING CAPITAL EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANKS: DIGITALIZATION AND RISK MANAGEMENT INTEGRATION	352
Sadullaeva Mokhinur Aziz kizi	
TECHNOLOGY MANAGEMENT AND SME INTERNATIONALIZATION: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW	358
Abduxafizova Madinabonu Mirabbos qizi	
TA'LIM SIFATINI BAHOLASH MEZONLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI.....	363
Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich	
SMART UNIVERSITET KONSEPSIYASI ASOSIDA REYTING VA RAQOBATBARDOSHLIKNI INTEGRAL BOSHQARISH	371
Xudoyqulov Husen Ahadovich	



BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY VA XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA MOLIVAVIY HISOBOT 1-SHAKLINING QIYOSIY TAHLILI	379
Shodiyev Murodjon Bakirovich	
SUG'URTA BOZORINING RAQAMLI RIVOJLANISHIDA NAZARIY QARASHLAR	384
G'ozieva Aziza Abdusalomovna	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSION LOYIHALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	389
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
MAHALLIY BUDJETLAR DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	397
P.SH.Usmonov	
СРАВНИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МЕТОДОВ ИНВЕСТИЦИОННОГО АНАЛИЗА ДЛЯ ОЦЕНКИ ДОХОДНОСТИ АКЦИЙ УЗБЕКСКИХ ЭМИТЕНТОВ.....	401
Ирмухамедова Муслима Дилшодовна	
KORXONA VA TASHKILOTLARDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA KORPORATIV MADANIYAT, AXLOQIY-RUHIY VA MA'NAVIY MUHITNING O'RNI	407
Suyunov Dilmurod Xolmurodovich, Qodirov Tuyg'un Uzoqovich	
ELEKTRON PULLARNING MOHIYATI VA ULARNING MILLIY TO'LOV TIZIMIDAGI ROLI.....	416
Toshniyozov Sherali Kamoliddinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA UY XO'JALIKLARINING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI KENGAYTIRISH.	423
Eshbaeva Shahnova Faxriddinova	
APPLICATION OF EXTREME MODELS IN ASSESSING THE ECONOMIC POTENTIAL OF AN ENTERPRISE	428
Musayeva Shaira Azimovna	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XORIJIY TAJRIBA HAMDA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH SAMARADORLIGI.....	435
Bozorova Ozoda Raximovna	



SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XORIJIY TAJRIBA HAMDA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH SAMARADORLIGI



Bozorova Ozoda Raximovna

Tashkent International University mustaqil tadqiqotchisi

o.bozorova@renessans-edu.uz

ORCID: 0009-0003-3937-2872

Annotatsiya. Ushbu maqolada norasmiy iqtisodiyotni qisqartirishda xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinadi. Shuningdek, keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida soliqlar muhim ta'sir etuvchi omillardan biri sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: soliq auditi, xorij tajribasi, soliq tizimi, soliq ma'murchiligi, norasmiy iqtisodiyot, soliq imtiyozlari, preferensiyalar.

Abstract. This article analyzes the experience of foreign countries in reducing the informal economy. It also highlights the role of taxation as one of the key factors influencing the successful implementation of large-scale economic reforms.

Key words: tax audit, international experience, tax system, tax administration, informal economy, tax incentives, preferences.

Аннотация. В данной статье анализируется опыт зарубежных стран по сокращению неформальной экономики. Также рассматривается роль налогов как одного из ключевых факторов, влияющих на успешную реализацию масштабных экономических реформ.

Ключевые слова: налоговый аудит, зарубежный опыт, налоговая система, налоговое администрирование, неформальная экономика, налоговые льготы, преференции.

KIRISH

Norasmiy iqtisodiyotga qarshi kurashishda xorijiy mamlakatlarda soliq mexanizmlari orqali turli usullar qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ham turli xulosalar shakllantirilgan. Jumladan, M. Petrescu¹ tomonidan olib borilgan tadqiqotda 147 ta mamlakatning norasmiy bozorlari bo'yicha 46 yil davomida to'plangan ko'rsatkichlar tahlil qilingan hamda norasmiy iqtisodiy faoliyat va davlatlar tomonidan qo'llanilgan iqtisodiy choralar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganilgan. Mazkur tadqiqot doirasida iqtisodiy choralar va norasmiy iqtisodiy faoliyat o'rtasidagi ta'sir darajasi baholangan.

Tahlil natijalariga ko'ra, ayrim holatlarda iqtisodiy cheklov choralarining kuchayishi sharoitida norasmiy iqtisodiyot ulushi oshishi kuzatilgan. Shuningdek, moliyaviy yoki savdo bilan bog'liq cheklovlarning kuchayishi ayrim mamlakatlarda norasmiy iqtisodiy faoliyatning kengayishiga hamda iqtisodiy tartibga solish mexanizmlarining murakkablashishiga olib kelganligi qayd etilgan.

¹ Ioana M. PETRESCU, 2016. "The Effects of Economic Sanctions on the Informal Economy," Management Dynamics in the Knowledge Economy, College of Management, National University of Political Studies and Public Administration, vol. 4(4), pages 623-648, December.



Biroq Alm² va boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda soliq auditi darajasining oshirilishi soliq qonunchiligiga rioya qilish ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga xizmat qilishi aniqlangan. Bu esa samarali soliq ma'murchiligi norasmiy iqtisodiyot hajmini qisqartirish hamda iqtisodiy faoliyatning shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda norasmiy iqtisodiyot muammosiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, F. Shnayder, D. Enste, L. Medina, K. Uilyams kabi xalqaro ekspertlar tomonidan ushbu masala har tomonlama o'rganilib, norasmiy iqtisodiyotning shakllanish omillari, rivojlanish yo'nalishlari va iqtisodiyotga ta'siri bo'yicha muhim ilmiy xulosalar berilgan. Ularning tadqiqotlarida norasmiy iqtisodiyotga qarshi kurashish mexanizmlari hamda uni qisqartirishga qaratilgan iqtisodiy va institutsional yondashuvlar kompleks tarzda tahlil qilingan³.

J. Tomasning fikriga ko'ra, norasmiy iqtisodiyot — bu davlat tomonidan tartibga solish, soliqqa tortish va nazoratdan chetda qoladigan iqtisodiy faoliyat hamda undan olinadigan daromadlar yig'indisidir. Ushbu ta'rif norasmiy iqtisodiyotning asosiy belgilarini, ya'ni iqtisodiy faoliyatning rasmiy tizimdan tashqarida amalga oshirilishini ifodalaydi⁴.

O'zbekistonlik tadqiqotchilardan Ortiqov va boshqalar "Norasmiy iqtisodiyot" nomli asarida ushbu tushunchani kengroq talqin qilib, uni nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy tuzilma, balki jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarni qamrab oluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida izohlaydi. Ularning fikricha, norasmiy iqtisodiyot ayrim hollarda davlat organlari nazoratidan chetda amalga oshiriladigan faoliyat bo'lib, unda iqtisodiy resurslardan yashirin tarzda foydalanish orqali qo'shimcha daromad olishga intilish kuzatiladi.

M. A. Qurbonovning fikriga ko'ra, norasmiy iqtisodiy faoliyatning oqibatlarini bir xil baholab bo'lmaydi. Ayrim holatlarda, ayniqsa "kulrang iqtisodiyot" shakllari, rasmiy iqtisodiyot rivojlanishiga to'sqinlik qilmasdan, balki ayrim jihatlarida unga ma'lum darajada yordam berishi ham mumkin. Shveysariyalik iqtisodchi Diter Kassel bozor iqtisodiyoti sharoitida norasmiy iqtisodiyotning uchta ijobiy funksiyasini ajratib ko'rsatgan⁵:

- "Iqtisodiy moylash" — rasmiy va norasmiy iqtisodiyot o'rtasida resurslarni qayta taqsimlash orqali iqtisodiy kon'yunktura darajalari o'rtasidagi tafovutlarni yumshatish. Masalan, rasmiy iqtisodiyotda inqiroz yuzaga kelgan davrda ishlab chiqarish resurslari butunlay yo'qolib ketmaydi, balki vaqtincha norasmiy sektor faoliyatiga o'tadi va iqtisodiy holat barqarorlashgach yana rasmiy iqtisodiyotga qaytadi.

- "Ijtimoiy amortizator" — ijtimoiy keskinliklarni yumshatish. Xususan, norasmiy bandlik aholining kam ta'minlangan qatlamlari uchun qo'shimcha daromad manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

- "Ichki stabilizator" — norasmiy iqtisodiyot o'z resurslari orqali rasmiy iqtisodiyot faoliyatini ma'lum darajada qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, norasmiy daromadlar rasmiy sektor mahsulotlari va xizmatlarini sotib olishga sarflanadi, natijada iqtisodiy aylanish jarayoni davom etadi.

Biroq ko'plab tadqiqotchilar norasmiy iqtisodiyotning sog'lom raqobat muhitiga hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ham ta'kidlaydi. Norasmiy iqtisodiy faoliyat ko'lamini kengayib borishi halol va qonuniy faoliyat yuritayotgan iqtisodiy subyektlar uchun ham muayyan xavf tug'dirishi mumkin. Shu sababli norasmiy iqtisodiyotning kengayishi shaxsiy va iqtisodiy xavfsizlikka tahdid sifatida baholanishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda soliq ma'murchiligida xorijiy tajribani o'rganish hamda uni milliy amaliyotda qo'llash samaradorligini baholash maqsadida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida xalqaro ilmiy adabiyotlar, xorijiy davlatlar soliq ma'murchiligi tajribasi hamda norasmiy iqtisodiyotga oid nazariy yondashuvlar o'rganildi. Shuningdek, turli mamlakatlar tajribasini taqqoslash orqali soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillar aniqlanib, ularning O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilindi.

2 Alm, .1., G. H. McClelland and W. D. Schulze (1992). Why Do People Pay Taxes? Journal of Public Economics. 48: 21-48.

3 Schneider, F. and Buehn, A.. 2018. Shadow economy: Estimation methods, problems, results and open questions. Open Economics, 1(1), pp.1-29.

4 Lippert O., Walker M. (1997) The Underground Economy: Global Evidence of its Size and Impact. The Fraser Institute Vancouver, British Columbia, Canada

5 Курбанов М.А. "хуфиёна иқтисодиёт улушини солиқлар воситасида камайитиришда молиявий технологиялар амалиётини такомиллаштириш" Тошкент 2024 йил



TAHLIL VA NATIJALAR

AQShda 1977–1986-yillar davomida an'anaviy soliq auditi o'tkazish ko'rsatkichi 2,5 foizdan 1 foizgacha kamaytirilishi natijasida davlat byudjetining soliq daromadlari taxminan 41 mlrd AQSh dollariga kamaygan. Shu bilan birga, tajribalar jarayonida soliq to'lovchilarning soliq auditiga munosabatini o'rganish maqsadida AQShning Minnesota shtatida 1724 nafar soliq to'lovchiga soliq auditi o'tkazilishi haqida oldindan xabar berilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, soliq auditi o'tkazilishi haqida xabardor qilingan kichik va o'rta biznes subyektlari o'z soliq hisobotlarida daromad miqdorini yuqoriroq ko'rsatgan. Natijada olimlar soliq auditining samaradorligi biznes subyektlarining daromad darajasiga qarab turlicha namoyon bo'lishi mumkinligini aniqlagan⁶.

Shu bilan birga, soliq madaniyatining oshishi norasmiy iqtisodiyotga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganish jarayonida ayrim tadqiqotchilar norasmiy iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining asosiy maqsadlaridan biri soliqlardan qochish ekanligini ta'kidlaydi. Shundan kelib chiqib, mamlakatda soliq madaniyatini kuchaytirish norasmiy iqtisodiyot ulushini kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi qayd etilgan.

Shuningdek, soliq madaniyatining oshishi soliq ma'murchiligining qay darajada samarali tashkil etilganligi hamda uning faoliyatining shaffofligi va tizimliligiga bevosita bog'liq ekani ta'kidlanadi.

1-jadval. Dunyo mamlakatlarida norasmiy iqtisodiyotning ulushi (2026-yil 1-yanvar holatiga)⁷

№	Mamlakatlar guruhlar	Norasmiy iqtisodiyotning YAIMga nisbatan ulushi (%)
1	Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar	9–20
2	Rivojlanayotgan mamlakatlar	25–65
3	Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari	35–40

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Torgler⁸ va boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida soliq ma'murchiligida shaffoflik, halollik, adolat tamoyillariga amal qilish, soliq to'lovchilarga maslahat va axborot xizmatlarini ko'rsatish hamda soliq to'lovchilarning soliq xizmatlari faoliyatini baholab borishi soliq madaniyatining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Shuningdek, Smith⁹ o'z tadqiqotlarida soliq xizmatining soliq to'lovchilarga hurmat bilan va adolatli munosabatda bo'lishi soliq to'lovchilarning soliq tizimiga nisbatan ishonchini oshirishini, natijada o'zaro hamkorlik muhitining shakllanishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, Estoniya, Litva va Latviya kabi Boltiqbo'yi mamlakatlarida soliq madaniyatining norasmiy iqtisodiyotga ta'siri yuzma-yuz uchrashuvlar orqali 3036 nafar respondent bilan o'tkazilgan intervyular asosida o'rganilgan. Tadqiqot natijalari soliq madaniyati oshgani sari norasmiy iqtisodiyot ulushi kamayish tendensiyasi kuzatilishini ko'rsatgan.

2-jadval. Norasmiy iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar¹⁰

№	Omillar	1-variant (12 ta tadqiqot natijasi, %)	2-variant (22 ta empirik tadqiqot natijasi, %)
1	Soliqlar va ijtimoiy sug'urta ajratmalari yukining darajasi	35–38	45–52
2	Davlat institutlari faoliyati sifati	10–12	12–17
3	Mehnat bozorining tartibga solinish darajasi	7–9	7–9
4	Pul o'tkazmalari ustidan nazorat tizimi	5–7	7–9
5	Davlat sektori xizmatlari sifati	5–7	7–9
6	Soliq madaniyati	22–25	–

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Torgler¹¹ tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda 1980–1990-yillarda Avstraliya soliq tizimida samaradorlikni oshirish va soliq to'lovchilar manfaatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilgani qayd etilgan. Ushbu islohotlar doirasida faqat nazorat mexanizmlarini kuchaytirish emas,

6 Alm, J., G. H. McClelland and W. D. Schulze (1992). Why Do People Pay Taxes? Journal of Public Economics. 48: 21-48.

7 M. Ioana "The Effects of Economic Sanctions on the Informal Economy". Management Dynamics in the Knowledge Economy Vol.4 (2016) no.4, pp.623-648. Маълумотлари асосида мустақил шакллантирилган

8 Torgler, B., J. C. Demir, A. MacIntyre and M. Schaffner. Causes and Consequences of Tax Morale: An Empirical Investigation, Economic Analysis & Policy. 38: 3 13-339.

9 Torgler, B., J. C. Demir, A. MacIntyre and M. Schaffner (2008). Causes and Consequences of Tax Morale: An Empirical Investigation, Economic Analysis & Policy. 38: 3 13-339.

10 <https://www.google.com/> Friedrich Schneider, 2013

11 Torgler, B., J. C. Demir, A. MacIntyre and M. Schaffner (2008). Causes and Consequences of Tax Morale: An Empirical Investigation, Economic Analysis & Policy. 38: 3 13-339.



balki soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, jarayonlarning shaffofligini ta'minlash va soliq bilan bog'liq tartib-taomillarni soddalashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Mijozlarga qulaylikka yo'naltirilgan yondashuv soliq to'lovchilarning soliq tizimiga nisbatan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Bunda soliq to'lovchilar o'z ehtiyojlari va manfaatlari soliq siyosati va tartibga solish mexanizmlarida hisobga olinayotganini his qiladilar. Muallifning ta'kidlashicha, Yaponiyada ham samarali soliq islohotlari Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda amalga oshirilgan bo'lib, unda soliq intizomini mustahkamlash va qonunchilikka rioya etish darajasini oshirishga qaratilgan tizimli choralar ko'rilgan.

Shuningdek, Amerika Qo'shma Shtatlarida Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda ayrim tovarlar, jumladan go'sht mahsulotlarining qariyb 80 foizi hamda kiyim-kechak mahsulotlarining muayyan qismi bozor narxidan yuqori narxlarda sotilganligi kuzatilgan. Bu holat iqtisodiy jarayonlarning murakkablashgan davrida norasmiy iqtisodiy faoliyatning kengayishiga sabab bo'lgan. Natijada hukumat ijtimoiy ta'minot tizimiga ajratiladigan mablag'larni, jumladan ishsizlik nafaqalari, ishchilarga kompensatsiyalar, mehnatni muhofaza qilish va sog'liqni saqlash bilan bog'liq xarajatlarni oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan choralarni kuchaytirgan. Bu esa o'z navbatida ishchi kuchiga bo'lgan talabning oshishiga va bandlik darajasining ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq ma'murchiligi tizimiga blokcheyn texnologiyasini joriy etish hukumatning soliq sohasiga oid qonunchiligini yanada takomillashtirishni talab etadi. Shuningdek, intellektual mulk bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlarni ham zamonaviy talablarga mos ravishda yangilash zarur. Biroq blokcheyn texnologiyasining elektron hukumat faoliyati samaradorligini oshirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda eng muhimi, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishdagi ahamiyatini hisobga olgan holda, qonunchilikni takomillashtirish bilan bog'liq tashkiliy ishlar o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda mamlakatimizda soliq ma'murchiligi jarayonlariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil usullarini keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, soliq to'lovchilarga, ayniqsa tadbirkorlik subyektlariga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz elektron xizmatlar ko'rsatish tizimini rivojlantirish, soliq majburiyatlarini bajarishda ularga har tomonlama ko'maklashish, soliq huquqbuzarliklarining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish hamda soliq to'lovchilarning huquqiy va moliyaviy madaniyatini oshirish zarur.

Shu bilan birga, soliq nazoratini amalga oshirishda zamonaviy raqamli monitoring, risk-tahlil va analitik baholash usullaridan foydalanish soliq xizmatlari tizimining samaradorligini oshirishga, soliq tushumlarining barqarorligini ta'minlashga va iqtisodiy faoliyatning shaffofligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ATABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 июлдаги «Солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 4389-сон қарори <https://lex.uz/docs/4415356>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 июлдаги «Солиқ маъмуриятчилигини тубдан такомиллаштириш, солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларнинг йиғилувчанлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 5116-сон Фармони <https://lex.uz/docs/3271159?ONDATE=25.10.2024&ONDATE2=30.03.2018&action=compare>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 июндаги «Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тўғрисида»ги 5468-сон Фармони <https://lex.uz/uz/docs/3802378>
4. Ioana M. PETRESCU, 2016. "The Effects of Economic Sanctions on the Informal Economy," [Management Dynamics in the Knowledge Economy](https://www.researchgate.net/publication/311111111), College of Management, National University of Political Studies and Public Administration, vol. 4(4), pages 623-648, December.
5. Alm, J., G. H. McClelland and W. D. Schulze (1992). Why Do People Pay Taxes? *Journal of Public Economics*. 48: 21-48.
6. Torgler, B., I. C. Demir, A. MacIntyre and M. Schaffner. Causes and Consequences of Tax Morale: An Empirical Investigation, *Economic Analysis & Policy*. 38: 3 13-339.
7. Schneider, F. and Buehn, A.. 2018. Shadow economy: Estimation methods, problems, results and open questions. *Open Economics*, 1(1), pp.1-29.
8. 'Lippert O., Walker M. (1997) The Underground Economy: Global Evidence of its Size and Impact. The Fraser Institute Vancouver, British Columbia, Canada
9. Қурбонов М.А. "Хуфиёна иқтисодиёт улушини солиқлар воситасида камайитиришда молиявий технологиялар амалиётини такомиллаштириш" Тошкент 2024 йил
10. <https://www.google.com/> Friedrich Schneider, 2013



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>